



TIBBIYOTNOMA

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI NASHRI

№2 2023 YIL 21 FEVRAL



BAHOR BAYRAMI MUBORAK!

Muhtarama ayollar, munis, mo'tabar ona-xonlar, Toshkent tibbiyot akademiyasining faxri bo'l mish ziyyoli opa-singillar, chuqur ilmiy tafakkuri bilan tibbiyot ravnaqiga munosib hissa qo'shish niyatida o'qib, o'rganayotgan, izlanayotgan talaba qizlarim! Sizlarni yaqinlashib kelayotqan 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni bilan samimiy tabrikayman.

Oila va jamiyat ustuni, hayotimizning fayzi va ko'rki bo'lgan xotin-qizlarni e'zozlash, ularga hurmat va ehtirom ko'stish xalqimiz uchun azal-azaldan buyuk qadriyat bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Chunki sizlar bilan hayotimiz go'zal va mazmuni, xonadonlarimiz olob wa nurafshondir.

Vatanimiz taraqqiyoti, oila va jamiyat hayotida xotin-qizlar muhim o'rinni va mavqegega ega. Ayollarimiz mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, siyosiy-iqtisodiy hayotidagi barcha sohalarda xususan, davlat boshqaruvi va vakilgani organlarida, ishlab chiqarish, tadbirkorlik, fermerlik, sog'liqni saqlash, ta'lim, ma'rifat, madaniyat va boshqa sohalarda samarali mehnat qilishmoqda.

Bu borada muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning: "Siz, hurmatli ayollarimiz o'zingizning onalik mehringiz, hayotiy bilim va tajribangiz bilan farzandlarimizni

turli xavf-xatarlardan asrashda, ularni mustahkam irodali, ma'nnaviy-intellektual jihatdan yetuk, jonajon Vatanimizga sadoqatli insonlar etib tarbiyalashda bundan buyon ham kuch-g'ayraringizni ayamaysiz, deb ishonaman. Ayniqsa, qiz bolalarni hayotga tayyorlash, ularni zamonaviy bilimlar, kasb-hunarlariga o'rgatishda biz avvalo sizlarga suyanamiz" degan so'zları har jihatdan ibratlidir.

Darhaqiqat, Toshkent tibbiyot akademiyasi ilmiy, tashkiliy va boshqa jarayonlarda qol'ga kirtilayotgan yutuqlarni ayollarning ishtiroykisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ularning mehnatdag'i, ilmiy-ijodiy izlanishdag'i wa o'quv jarayonidagi fidoyligini hamisha yuksak qadrlaymiz. Bilimli, zukko, har tomonlama o'rnak olsa arziyidigan, nomdor stipendiant talaba-qizlarimiz safi yil sayin ortib borayotganligi bizni quvontiradi. Biz albatta bunday yoshlarimiz bilan faxrlanamiz.

Qadqli ustoz-murabbiyilar, opa-singillar! Sizlarning barchangizni go'zallik va nafosat ayyomingiz bilan yana bir bor qutlayman. Sizlarga mustahkam sog'liq, go'zallik, oilaviy baxt, xonadoningizga fayzu baraka tilayman.

A.SHADMANOV,
Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori

ADABIYOTNING SO'NMAS MASH'ALI

Buyuk shoir, so'z mulkinining sultoni qalam bilan dunyo tebratgan, asrlar davomida o'z so'zi qadr-qimmatini tarix zarvaraqlariga muhrlagan o'lmas ijodkor Alisher Navoiy chin turkiy tilining asoschisi donishmand olimdir.

Alisher Navoiy 1441 yil 9 fevralda Xuroson davlatining poytaxti – Hirot shahrida tug'ilди. Alisherning otasi G'iyosiddin Kichkina temuriylar saltanatining mulozimlaridan, onasi ham shu xonodon xizmatidagi ayollardan biri edi. Alisher to'rt-besh yoshlarida maktabga bordi. Olti yosha to'lganida Xuroson podshosi Shohrux mirzo vafot etib, Hirotda toj taxt uchun kurash avj oladi. G'iyosiddin Kichkina oilasi Iroqning Taft shahriga kelib yashay boshlaydi. Bu shaharda Alisher mashhur tarixchi, "Zafarnoma" asari muallifi Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashdi. Tasodifiy uchrashuv chog'ida buyuk olim yosh Alisherning ziyrakligi, farosatiga lol qoldi.

Alisher turkiy va forsiyda ajoyib she'rлar bitib, el orasida tanila boshladi. Xususan, hali Mashhadga kelmasidan avval o'z davrining malik ul-kalomi, ya'ni so'z ustasi bo'lgan Mavlono Lutfiyning yosh Alisher ijodiga bergen bahosi shoirning obro'sini ko'tarib yuborgan edi. Navoiyga zamondosh tarixchi G'iyosiddin Xondamirning hikoya qilishicha, bir kuni Alisher Lutfiiga yangi yozgan g'azallaridan o'qib beradi. Mavlono Lutfiiga shu qadar ma'qul tushdiki, u beixтиор "Agar tuyassar bo'lса edi, o'zimning o'n-o'n ikki ming forsiy va turkiy baytimni shu g'azalga almashtirardim" degan edi. "Men kabi nodir iste'dodni hali dunyo ko'rgan emas, men she'r bitish bobida Nizomiy Ganjaviy darajasidaman", deydi. Yana shu masnaviysida, hatto Firdavsiy "Shohnoma"dek buyuk asarni o'ttiz yilda bitgan bo'lsa, men shunday ulug' asarni o'ttiz oydayoq yoza olaman, – deya iftixon qiladi. Shunday bo'ladi, buyuk asar yozildi. Bu so'zlarini Navoiy buyuk "Xamsa"sinи yozishidan qariyb yigirma yillar avval aytgan edi. Ikki yilda, faqat ishlagan vaqt hisobga olinganda, olti oyda "Xamsa"ni tugallaydi.

(Davomi 2-betda)

Hikmat



*Dunyoda hech qanday chegarani tan olmaydigan
ikkita mo'jiza bor. Biri – Quyosh nuri,
ikkinchisi – Ona mehri.*



Hikmat



ADABIYOTNING SO'NMAS MASH'ALI



(Boshi 1-betda)

O'sha davrlarda haqiqiy shoir bo'lish uchun ilgari yashab o'tgan qalamashlardan 20 ming, zamondoshlar ijodidan 10 ming baytni yoddan bilish talab qilingan. Navoiy yigitlik ayyomida 50 ming baytdan ortiq she'rni yod olganini "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida yozadi. Navoiy Movarounnahr hayotini yaqindan o'rgandi, ona xalqining asosiy qismi istiqomat qiladigan yurtga cheksiz mehr qo'ydi. U bu mehrni keyinchalik "Xamsa"ning oxirgi dostoni – "Saddi Iskandariy"da Iskandarning Movarounnahr, jumladan,

Samarqandni zabit etishini tasvirlash bahosida o'ta samimiy bayon etdi.

Ozarbayjontik shoir Nizomiy Ganjaviy (1141 – 1209) besh doston yaratib, xamsachilik an'anasini boshlab berdi. Navoiy gacha bol'gan davrda hindistonlik o'zbek shoiri Xusrav Dehlaviy ham "Xamsa" yaratib, shurhat qozondi. Ashraf ham "Xamsa" yaratgan edi, biroq uning bu boradagi urinishi Xusrav Dehlaviy darajasiga ko'tarila olmadi. Navoiy "Xamsa" yozish rejasini pishitib yurgan yillari Abdurahmon Jomiy ham Nizomiy "Xamsa"sigi javob yozishga jalal kirishgan edi. Navoiy "Xamsa"ni misli ko'rilmagan bir qisqa muddatda yozib tugalladi. 1483 yili boshlagan ishini 1485 yilda oliy darajada yetkazdi. "Xamsa"ni tugallab, Navoiy uni Husayn Boyqaroga taqdirm etganida shoh shoirni otga mindirib, bir necha qadam o'zi piyoda otni yetakladi. Bu nodir voqeja temuriy hukmdorning milliy adapiyot qadrini naqadar yuksak baholay olganidan dalolat beradi.

Navoiy "Xamsa"ning so'nggi dostoni – "Saddi Iskandariy"ning yakunlovchi bobida Nizomiy o'z "Panj ganj"ini o'n besh yilda yozib, uni yana o'n besh yil isloh qilgani, ya'ni qayta ishlaganini, shu tariqa o'ttiz yil barcha ishlarni yig'ishtirib, odamlardan o'zini chetga obil mehnat qilganini yozadi. Hindistonlik Xu-

sraov Dehlaviy ham "Xamsa"ni yozish uchun o'ttiz yil bo'lmasa ham, uning yarmicha, hech bo'lmaganda, uchdan biricha, ya'nini kamida o'n yil zahmat chekkanini aytadi. "Ular bu beshliklarini yozayotganda tamomi tashvishlardan xoli tarzda ijod qildi, – deydi Navoiy. – Lekin men bir lahma bo'lsin xalq g'amu tashvishidan ajralmagan holda qalam tebratdim. Shunda ham ikki yilda "Xamsa"ni tugatdim. Agar faqat yozilgan paytlarining o'ziga hisobga olinsa, olti oydan oshmaydi, – deha e'tirof etgan edi. Darhaqiqat turkiy tilining eng nodir javhari "Xamsa" qisqa davr ichida dunyo tamaddunidagi bebehavo haykal qo'yaga olgan asrlar silsilada charxlangan takrorlanmas millatimizning faxri iftixori ulug' boyligidir.

Navoiy yaratgan o'lmas asarlar tunganmas ma'naviy mulk sifatida abadiy qoldi. O'zbek xalqi bu boy meros bilan haqli ravishda dunyodagi buyuk adapiyot yaratgan millatlar qatoridan joy oldi. Turkiy olamda undan oldin ham, keyin ham bunday buyuk sohibi qalam chiqqani yo'q.

**Fotima IRSALIYEVA,
dotsent,
Nigora HAKIMOVA,
TTA akademik litseyi Yoshlar masalalari
ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor
o'rinnbosari**

ZULFIYAXONIM IJODIGA BIR NAZAR

**Sarin shabbodalar hur-hur keza boshlagan iforli damlar O'zbekiston xalq shoirisasi
Zulfiyaxonim tavallud topgan kun bilan chambarchas bog'langanligi ham Yaratganning
bir inoyatidir balki... Havolar tozarib ko'ngillar bayt-u o'lan sari oshiqqan ko'klam
pallasida nafaqat vafo va sadoqat kuychisi, balki jamiyat po'rtanalariga "yelka tutgan"
jasoratli qalb egasi sharafiga musharraf bo'lgan shoiramizning aziz xotirasini qumsadik.**

Zulfiya Isroilova – taniqli va iqtidorli o'zbek shoirasi. Yorqin rassom, oddiy inson qalbini o'tkir his qilgan – mehnatkash, Sharq ayolining jamiyatidagi teng huquqi uchun mardonovor kurashgan ayol. Zulfiya she'riyatining nufuzi – bizning dabdbabal murakkab davrimizning haqqoniy ifodasi, o'ziga xosligi, zamondoshlarimizning qalbi va harakatlaringin yorqin tasvirishidir. Zulfiyaxonim Isroilova 1915 yil 1 mart kuni Toshkent shahrining qadimiy Degrez mahallasida tavallud topgan. Avval boshlang'ich maktabda, so'ng xotin-qizlar bilim yurtida tahsil olgan. 1935-1938 yillarda O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Til va Adabiyot instituti aspiranturasida o'tqigan. Shoira she'rlerining elaro mashhurligi tasodifiy emas. U bolaligidan olamga hayrat ko'zi bilan qarovchi, uning boshqalar ko'rolmaydigan jihatlarini ilg'ovich qizaloq ekanligi bilan ajralib turgan. Buning ustiga, oиласидаги мухит ham yosh Zulfiyada badiyi ijoda ishtiyoqni anglatardi. Shoira bolaligini shunday eslaydi: "Otamni... Isroil degrezer edilar. Otam zahmatkash temirchi edi. Otamning hamma vaqt olovga yo'dosh kasbidan faqat zavq ko'rар edi. Otamday qudratli odam yo'q edi men uchun. Men hali-hanuz otamday bo'lishni orzu qilaman, ammo na iloj, inson qalbiga kira bilish temirga ishlov berishdan mashaqqatiroiq, yurakni chaqmoq kabi alanga oldirish har kimga ham mayusssar bo'lavermas ekan..."

Mening onam o'zining ta'bincha, "usti butun-ichi tutun" ayollardan edi. U hamma vaqt kamgap, xayolchan edi, lekin fikrlari, oylari mudroq emasliginiunga mutelik, zaiflik yot ekanligini bilar edim. Ruhidagi ma'yuslik, ovozidagi hazinlik faqat uning xarakteriga xos bir sifatiga edi, xolos.

Zulfiya she'riyati ana shunday pokiza buloqlardan suv ichgan ijoddir. Ayni shu sababdan uning tinchlik haqidagi, inson ruhiyatini g'ajib tashlay oladigan

hijron to'g'risidagi, tabiatning ajib bir holati borasidagi she'rlari hech kimni befarq qoldirmagan.

"Zulfiya iste'dodi o'z davrida umummamlakat adapiyotida alohida hodisa bo'lgan", deya ta'kidlagan O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov. Chindan ham tarixiy qismat Sharq ayolining ovozini jahon minbariga olib chiqish sharafi va zahmatini Zulfiya Isroilova zimmasiga qo'ydi. Bu ma'suliyat uning ijod ufqini va hayot tarzini belgiladi, taniqli jamoat arbobi sifatidagi tinchlik va xalqlar do'stligining jarchisi sifatidagi o'rnnini ta'minlaydi. "O'glim, sira bo'lmaydi urush" she'ri dunyoning qaysi tiliga tarjima qilgongan bo'lsa, o'sha yurt, millat onraligining orzu-istikclarining nidosi bo'ldi. "Mushoira" ash'ori esa Osiya va Afrika yozuvchilarining birdamlik harakatining madhiyasidek jarangladi.

Zulfiyaxonim 1935 yilda shoir Hamid Olimjon bilan turmush qurgan va uning bevaq qafotidan so'ng ko'plab mahzun she'rlar yaratgan. Pushkin, Lermontov, Nekrasov, LUkraina, V.Inber va boshqa ko'plab shoirlarning asarlaridan namunalarni o'zbek tiliga tarjima qilgan. Zulfiya she'riyati tabiatiga hamda uning ajralmas qismi va yuqori cho'qqisi bo'lmissodda nisbatan hayajoni sevgi bilan burkangan.

Zulfiyaxonim o'zlarining she'rlari bilan, iboli va hayoli fe'l atvori bilan, pokiza e'tiqodiyu zukko fikrlari bilan har bir o'zbek ayolining hayotida katta o'rinn olgan, ma'naviy dunyosining katta bir qismini tashkil qilgan inson bo'lgan desam xato qilmayman.


**Namuna ABDURAXMONOVA,
Toshkent tibbiyot akademiyasi
Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi
fakulteti 1-kurs talabasi**





BOBURNING JAHON ILM-FANI VA MADANIYATIGA QO`SHGAN ULKAN HISSASI

Jahon ilm-fani, madaniyati adabiyoti va tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk siymolardan biri shoh, buyuk sarkarda va shoir Zahiriddin Muhammad Boburdir.



Boburning otasi Umarshayx Mirzo Axsida bevaqt, 39 yoshida fojiali halok bo'lgach, oilaning katta farzandi, 12 yoshli Bobur valiahd sifatida taxtga o'tiradi. Boburning onasi o'qimishli va oqila ayol bo'lib, Boburga hokimiyatni boshqarish ishlarida faol ko'mak bergen, harbiy yurishlarida unga hamroqlik qilgan. Bobur barcha temuriy shahzodalar kabi maxsus tarbiyachilar, yirik fozil-u ulamolar ustozligida harbiy ta'lim, fiqh ilmi, arab va fors tillarini o'rGANADI, ko'plab tarixiy va adabiy asarlar mutolaa qiladi, ilm-fanga, she'riyatga qiziq qoshlaydi. Dovyurakligi va jasurligi uchun u yoshlidan "Bobur" ("Sher") laqabini oladi. Bobur otasi yo'lidan borib, mashhur so'fiy – Xoja Ahrorga ixlos qo'yadi va uning tariqati ruhida voyaga yetadi, umrining oxiriga qadar shu e'tiqodga sodiq qoladi. Keyinchalik "Boburnoma" asarida Bobur Xoja Ahror ruhi bir necha bor uni muqarrar halokatdan, xastalik va chorasisizlikdan xalos etganini, eng og'sharoitlarda rahnamolik qilganligini ta'kidlaydi.

Bobur 18-19 yoshlarida ruboiy va g'azal yoza boshlagan. Uning "Topmadim" radifli g'azali va "Yod etmas emish kishini g'urbatda kishi" misrasi bilan boshlanuvchi ruboysi o'sha yillardagi hayoti bilan bog'liq.

Boburning ulkan san'atkorigi shundaki, shaxsiy kechinmlarini jiddiy umumlashma darajasiga ko'tara oladi va natijada asarlarida olg'a surilgan g'oyalar umuminsoniy qadriyatlar darajasiga olib chiqiladi. Bobur ijodida, xususan, she'riyatida kindik qoni to'kilgan ona yurtini dildan qumsash, uning tuprog'iga talpinish, g'ariblik azoblaridan o'tli hasrat, yor-u diyor sog'inchi va visol ilinji, taqdir zarbalari va turmush uqubatlari, zamona noso'zliklaridan nola badiiy tahlil etiladi.

Bobur ijodida ishq-muhabbat, sevgi-sadoqat, visol va hijron mavzusi ham salmoqli o'r'in tutadi. Uning g'azal va ruboiyalarida, tuyuq va masnaviyalarida ma'shuqaning maftunkor go'zalligi, beqiyos husnu latofati, sharqona odobu axloqi, noz-u karashmasi yengil va o'ynoqi, musiqiy va ravon misralarda katta mahorat bilan tarannum etiladi.

Hozirda uning 119 ta g'azali, 233 ta ruboysi, 10 dan ortiq tuyuq va qit'alari, 50 dan ortiq muammo va 60 dan ziyod fardlari aniqlangan. Devoni tarkibida umumiy hajmi 270 baytdan iborat 8 masnaviy ham o'r'in olgan. 1521 yil Hindistonga yurishlari davrida Bobur "Mubayyin" asarini yaratdi. Masnaviy tarzida yozilgan, islam huquqshunosligi va shariat aqidalariga bag'ishlangan bu asarda Movarounnahr va Hindistonga oid o'sha davr ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bo'yicha qiziqarli ma'lumotlar ham jamlangan. Valiabd Humoyun va Komron Mirzolarga dasturulamal sifatida mo'ljallangan "Mubayyin"da, ayni zamonda, namoz, zakot va haj ziyyorati to'g'risida ham shar'iy mezonlar bayon qilingan. Shu yillarda Bobur Sharq she'riyatining asosiy masalalaridan biri aruz vazni, uning nazariysi va amaliyotiga oid ilmiy risolasini yakunlaydi. Bobur nomini dunyoga mashhur qilgan shoh asari "Boburnoma" asari dastavval "Vaqoye", "Voqeanoma" nomlari bilan atalgan. Ushbu asarda 1494-1529-yil voqealari haqqoniy tasvirlangan. Asarda o'z atrofidagi tarixiy shaxslar tasvirini mukammal tarzda aks etgan. Jumladan, tasvirlanayotgan insonning tashqi ko'rinishi, ichki dunyosi, qilgan ishlari, dini, odob-axloqi oilasi, farzandlari haqida batafsil ma'lumot bergan. "Boburnoma" shunisi bilan ham tarixni to'g'ri talqin qilish yo'lidagi bebabu manbaa sanaladi. Bundan tashqari, "Boburnoma" asarida Bobur o'zi bo'lgan joylarning tabiatni, iqlimi, o'simlik va hayvonot dunyosi haqida ham batafsil ma'lumotlar beradi.

Boburning "Xatti Boburiy", shuningdek, musiqa san'ati va harb ishlariga maxsus bag'ishlangan qator risolalari ham bo'lgan, ammo keyingi ikki asar matni hanuz topilgan emas. "Xatti Boburiy"da muallif arab alifbosini tahrir etib, yozuvni soddalashtirish va osonlashtirish maqsadida uni turkiy til va talaffuz mezonlari moslashtirgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2023 yil 26 yanvarda "Buyuk shoir va olim, davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida TTA akademik litseyida fan oyligi doirasida tadbirlar, insholar tanlovi, davra suhbat, devoriy gazetalar tanlovi va ochiq darslar o'tkazildi. Zero, Zahiriddin Muhammad Boburdek buyuk siyoning hayot yo'li, qilgan ezgu ishlari bir so'z bilan aytganda dunyo madaniyatiga qo'shgan hissasi bilan yosh avlodni tanishtirish, she'riy asarlariga oshno qilish biz ustozlarning zimmamizdag'i ulkan vazifalardan biridir.

Dilnoza ISMAILOVA,
TTA akademik litseyi Tillar kafedrasи mudiri



AYOL BAXTLI BO'LSA,



XOTIN-QIZLARNI QO'LLAB-QUVVATLASH – USTUVOR VAZIFA

Xalqimizda ayolga bo'lgan ehtirom juda ulug'lanadi. Ayollarga bo'lgan yuksak e'zoz va e'tiborni har yili Prezidentimiz farmoni bilan ko'plab xotin-qizlarning yuksak unvon, orden va medallarga sazovor bo'layotganligida ham ko'rish mumkin.

Yosh qizlarimizni ma'nnaviy savyasini yuksalitirish maqsadida uzoq yillardan buyon Zulfiya mukofoti bilan taqdirlanishi ham mamlakatimiz xotin-qizlarning ezgu intilishlarini ro'yobga chiqarish borasida yaratilayotgan keng imkoniyatlarga yana bir dalildir.

Darhaqiqat, ayollarimiz jamiyatimizning ko'p qismini tashkil etadi. Bugun jamiyatning deyarli hech bir muammosini, davlat qurish vazifasini ham ayollar ishtirokisiz hal etish mushkul. Bugungi kunda Toshkent tibbiyot akademiyasida 50 foizdan ortiq ayol olimlar, o'qituvchilar, shifokorlar faoliyat yuritib kelmoqda.

Jamoamiz xotin-qizlar kengashi qaysi yo'naliishlarda faoliyati olib borayotganiga to'xtalib o'tsak.

Bugungi kunda xotin-qizlarning muammo-lari turlicha va ushbu muammolarni yechish uchun jiddiy yondoshuvni talab qiladi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniyarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonga ko'ra TTA xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan belgilangan chora-tadbirlar asosida faoliyat olib borilmoqda.

Xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishi, munosib ish topishiga har tomonlama ko'maklashish, iqtidorli yoshlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish, xotin-qizlar ortasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, oiladagi ma'nnaviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha manzilli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu birinchi navbatda, jamoamiz a'zolari va TTAda

tahsil olayotgan 10 000ga yaqin bakalavriat, magistratura va klinik ordinatura talabalari ortasida gender tengligini ta'mintashga qaratilgan faoliyatdir.

TTA Xotin-qizlar qo'mitasi raisi G.Raximbayeva tomonidan akademik guruh murabbiyilarini va kafedra ma'naviyat ishlari bo'yicha mas'ullar uchun "Xotin-qizlarga ko'satiladigan tazyiq va zo'ravonlik holatlari va ulardan himoyalanish" mavzuda seminar-trening o'tkazildi.

"Xotin-qizlar va erkaklarning oila va jamiyatdagi ijtimoiy o'rni" mavzusida o'tkazilgan treningni materiallar taqdimoti va tarqatma materiallar TTAning har bir guruha taqdim etilib, muhokama qilindi. Ushbu tadbir ishtirokchilarning xotin-qizlarga nisbatan ko'satiladigan tazyiq va zo'ravonlikning har qanday shakl va turlaridan himoyalanish bo'yicha huquqiy savodxonliklarini oshirishga, yoshlarni oila va jamiyatda sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirish uchun tayyorlashga xizmat qilishi shubhasiz.

Toshkent tibbiyot akademiyasi tomonidan "Biz zo'ravonlikka qarshimiz!", "Xotin-qizlarning tazyiq va zo'ravonlikda himoya qilish tarafforimiz" mavzularida videoroliklar tanlovi e'lon qilindi. Tanlovida mavzuga doir 30 ortiq materiallar qabul qilindi. Ular orasidan munosiblari saralanib, g'oliblar esdalik sovg'alar bilan taqdirlanildilar. "Eng yaxshi videorolik" nominasiyasida davolash fakulteti talabasi Mahkamjon Qodirov g'olib bo'tdi.

Jahon hamjamiyatini ogohlilikka chaqirish, aholining orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi (OITS) haqidagi xabardorlik darajasini oshirish maqsadida ham tadbirlar o'tkazib kelinmoqda.

Tadbirdan asosiy maqsad bunday bedavo kasallikka chalinmaslik uchun sog'lom turmush tarziga rivoq qilish, o'zi va yaqinlarini turli xastaliklardan ehtiyoq qilishga qaratilmoqda.

TTA xotin-qizlar masalalari bo'yicha rektor maslahatchisi G.Raximbayeva, Malaka oshirish fakultetining dekanı N.Nurillayeva va Ilmiy kadrlarni tayyorlash va innovatsiyalar bo'limi boshlig'i Z.Muminova, TTA Akusherlik va ginekologiya kafedrasi xodimlari, Akusherlik va ginekologiya yo'nalishi magistratura va ordinatura talabalari va 1-Davolash fakulteti 5-kurs talabalari bilan reproduktiv salomatlikka doir davra suhbatli o'tkazildi.

Tadbirda talabalar bilan suhbatni Akusherlik va ginekologiya kafedrasi professori, tibbiyot fanlari doktori D.Saidjalilova "Sog'lom ona – sog'lom bola garovidir" mavzuida taqdimot bilan davom ettirdi. Davra suhbatida Akusherlik va ginekologiya kafedrasi dotsenti, tibbiyot fanlari nomzodi G.Nigmatovaning "Ertar turmush qurishning salbiy oqibatlari", tibbiyot fanlari doktori G.Babadjanovaning "Reproduktiv salomatlikni yaxshilash omillari" mavzusidaga ma'ruzalari tinglandi.

Yuqorida amalga oshirilgan tadbir va uchrashuvlardan ko'rinalidi, biz bugun yosh avlod tarbiyasiga ham qachongidan ham ko'ra katta e'tibor bermoqdamiz. Bizning eng katta ishonchimiz, madad-tayanchimiz – bu o'sib kelayotgan yosh avloddir. Biz mamlakatimiz va mustaqilligimiz kelajagini shu yoshlarni qiyofasida, ularning pok qalbi, erkin tafakkuri, mustahkam irodasi va dunyoqarashida ko'ramiz.





JAMIYAT BAXTLIDIR

BARQAROR TARAQQIYOTDA AYOLLAR: TIBBIYOTDA ILM-FAN VA SIFATLI TA'LIM

"Barqaror taraqqiyotda ayollar: tibbiyotda ilm-fan va sifatli ta'lim"
Toshkent tibbiyot akademiyasida o'tkazilgan xalqaro konferensiya ana shu dolzARB masalaga bag'ishlandi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonidan kelib chiqadigan vazifalar mazkur konferensiya mohiyatini belgilab berdi.

Tadbirda so'z olganlar mamlakatimizda ayollar manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faoliyagini oshirish, sog'lig'ini saqlash, kasbga o'qitish va bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka keng jalb etish, ehtiyojmand xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, gender tenglikni ta'minlash borasida olib borilayotgan islohotlar borasida so'z yuritildi.

Konferensiya ishtirokchilari Birlashgan Millatlar Tashkiloti Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida ochiq muzokaralar olib bordilar.

Oila va xotin-qizlar masalalari qo'mitasi qoshidagi Oila va ayollar ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy xodimlarining "Ta'lim va fanda ayollar faoligi, gender tengligining tamoyili" mavzusida ma'ruzasi hamda TTA ilmiy ishlar bo'yicha prorektori Feruza Azizovaning "O'zbekistonda tibbiyot fanining rivojlanishida olima ayollarning o'rni" mavzusida mulohazalari konferensiya ishtirokchilarining mavzuga oid ilg'or taklif va mulohazalriga sabab bo'ldi.

TTA 2-son oilaviy tibbiyotda ichki kasalliklar kafedrasi dotsenti, t.f.d. Nargiza

Abdurahmanova, Janubiy Koreya Deniz va baliqchilik texnologiyasi instituti professori Seungheye Choi "APEC SEN Ruhiy salomatlik xizmati trening dasturi" mavzusidagi ma'ruzasi bilan ishtirok etdi.

Xalqaro anjuman O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning: "Ilm-fan bilan shug'ullanish, ilmiy yangilik yaratish – bu igna bilan quduq qazishga barobar. Men o'zim shu sohadan chiqqanim uchun bu ishning naqadar qiyin va murakkab ekanini yaxshi bilaman. Shuning uchun ham oila tashvishlari va farzand tarbiyasini ilmiy-tadqiqot bilan birga olib borayotgan, bu borada amaliy yutuq va natalarga erishayotgan olima ayollarni shaxsan men chinakam matonat va jasorat sohibalari deb bilaman va yuksak qadrlayman", deya ta'kidlagan so'zlari bilan yakunlandi.

Sahifa materiallarini tibbiyot fanlari doktori, professor, TTA xotin-qizlar qo'mitasi raisi Gulnara RAXIMBAYEVA tayyorladi.



ILM PILLAPOYALARIDAN KO‘TARILAYOTGAN OLIMA

Ilm o‘rganish, tajriba orttirib jamiyatga foyda keltirish yo‘lidagi chinakkam mehnat salmog‘ini igna bilan quduq qazishdek mashaqqatli ishga qiyoslash mumkin.

Uzdu shunday jarayonda tobla-nib, ilm pillapoyalaridan sabr bilan ko‘tarilib o‘z maqsadlariga erisha olgan haqiqiy ustozlarda uzoqni ko‘ra oladigan ajib qobiliyat bo‘ladи. Qahramonimiz Munisaxon ustozlar borasida omadi chopgan yoshlardan biri. Toshkent tibbiyot akademiyasiga yuqori ball bilan o‘qishga kirgan Munisaxonagi iqtidorni erta payqab, uning tirishqoqligi va mehnatsevarligini qadrlagan ustozlari yillar davomida iqtidorli talabaning har bir tashabbusini qo‘llab-quvvatladi.

Natijada Kardiologiya yo‘nalishi bo‘yicha bitiruvchi kurs magistranti Munisaxon Mahkamova mamlakatimizning ko‘plab yoshlari qatori o‘maqsadlariga erishib kelmoqda. Toshkent tibbiyot akademiyasi 2022-2023 o‘quv yili uchun Prezident stipendiysiga nomzodlarni saralash tanlovi natijalariga ko‘ra Munisaxon g‘oliblikni qo‘lga kiritdi.

Munisaxon Mahkamova Akademiyining Tibbiy-pedagogika fakultetini a’lo baholar bilan yakunlagach, o‘zining bolalikdagi orzusi – Kardiologiya sohasida ta’limni davom ettirish maqsadida davlat granti asosida magistraturaga qabul qilindi.

– Kardiolog bo‘laman, deb niyat qilganimda 7-8 yoshlarda edim, – deyli Munisaxon biz bilan suhabatda. – O’sha paytlarda bu niyatim ostida qanchalar mashaqqatli yo‘l turganini tasavvur ham qila olmasdim. Ota-onam va ustozlarimning qo‘llab-quvvatlashi va menga bo‘lgan ishonchi tufayli bugungi yutuqlarga erishdim.

Ko‘plab nufuzli ilmiy konferensiya va tanlovlар ishtiroychisi, “Luchshiy molodoy uchyonyi SNG-2021” tanlovi g‘olibasi, Akademik Nabi Majidov nomidagi stipendiya va “Yosh tadqiqotchi” nominatsiyasi sohibasining yutuqlari chindanam tahsinga loyiq.

Yosh, izlanuvchan olima 40 dan ortiq maqola va tezislар, o‘quv qo‘llama va patent muallifi degan sharafga erishdi. Bugun esa tengdoshlari havasini keltirib Prezident stipendiysi sovrindori. Munisaxon ayni kunda Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi yurak aritmiyalari laboratoriyasida ilmiy faoliyat olib bormoqda. 2022 yil Xiva shahrida o‘kazilgan Xalqaro Kardiologlar konferensiyasi Yosh olimlar tanlovida 3-o‘rinni egalladi.

2022 yili Munisaxon Sankt-Peterburg shahrida o‘z sohasi bo‘yicha



malaka oshirib, “Rossiyskiye dni serda-sa” Xalqaro ta’lim forumida ham faol ishtirok etdi.

Munisaxonning bu kabi yutuqlarini qo‘lga kiritishida ilmiy rahbari, Toshkent tibbiyot akademiyasi professori Nargiza Nurillayevanining mehnatlari beqiyos.

Qahramonimiz bizga o‘z muvaffaqiyatlari haqida so‘zlab berar ekan: “Hayotda erishgan eng katta yutug‘im bu – har doim yonimda menga ishongan insonlarning bortigidir”, dedi.

Biz esa Munisaxonga shunday deymiz: “Yaxshi insonlar borligi va ular ko‘rsatayotgan mehrni yurakdan his etib, yashashning o‘zi katta baxt. Odamlar bu tole’ga o‘zaro ishonch va bir-biriga nisbatan sadoqatli munosabatlar sabab erishadi.

**Gulchehra MIRZAYEVA,
TTA Matbuot bo‘limi boshlig‘i,
jurnalist**



FAOLLAR TAQDIRLANDI

AQShning O‘zbekistondagi elchi Jonatan Henik O‘zbekistondagi xotin-qizlar uchun tashkil etgan o‘z-o‘zini himoya qilish kurslari ishtiroychilarini tabriklandi.

Taqdirlash marosimida 57 nafr ishtiroychiga sovg‘a ulashildi. Bu elchixonada xotin-qizlarning imkoniyatlari ni kengaytirish va gender zo‘ravonlikka qarshi kurashish maqsadida 2021 yilda ishga tushirgan 3 oylik dasturning ol-tinchisidir.

Loyha doirasida bugungi kunga qadar Toshkent shahrida 297 nafr xotin-qiz o‘qitildi. Loyha davomida TTA Tibbiy biologiya yo‘nalishi 1-kurs tala-basi Shoista Akbarova ham faol ishtirok etdi va elchi tomonidan taqdirlandi.

**I.MAHKAMOVA,
tyutor**





Toshkent tibbiyot akademiyasi Umumiy va bolalar jarrohligi kafedrasini dotsenti, Turon xalq yozuvchisi, Respublika Sog'liqni saqlash a'lochisi Aljon Faqirov Zohidovichning (adabiy taxallusi Aljon Zohidiy) ilmiy, adabiy, ixtirochlik faoliyatları jahon ilm ahli tomonidan e'tirof etilib, 2023 yilning 22 yanvarida akademik Leybnis nomli Yevropa tabiiy fanlar Akademiyasi haqiqiy a'zoligiga qabul qilindi.

U o'ttiz ikki yillik pediatr-shifokor (ToshPMIni 1991 yili imtiyozli diplomga bitirgan), olyi toifali bolalar jarrohi (1992 yili xirurgiyadan internatura tugatgan), refleksoterapevt (1992 yili Tibet o'quv markazini bitirgan), eski o'zbek yozuvi (arab imlosi) bo'yicha mutaxassis (Til va adabiyot instituti imtiyozli diplomi 1992 yil), tib olimi (2004 yili fan nomzodi), dotsent (Toshkent tibbiyot akademiyasi Umumiy va bolalar xirurgiyasi kafedrasini), tabib (Xalq tabobati akademiyasi akademigi), adib (1996 yildan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi), O'zbekiston Respublikasi Jurnalistlar ijodiy uyushmasi a'zosi, 75 dan ortiq badiiy-adabiy, ilmiy, ommabop kitoblar, darsliklar, monografiyalar, o'quv qo'llanmalari muallifi, ekolog (2014 yildan Xalqaro "Ekologiya i zdorovye cheloveka" Ilmiy akademiyasi muxbir-a'zosi), 2022 yildan "Ta'lim fidoyisi" ko'krak nishoni sohibi, ruhshunos (2015 yildan "Afrosiyob" Psixologik Fanlar akademiyasi akademigi), ixtirochi (meditsina sohasida 28 ta ixtirolarga mualliflik

guvohnomasi va patentlar, 35 ta ratsionalizatorlik takliflari muallifi), urolog (nomzodlik dissertatsiyasi mavzusi bolalar urologiyasidan), umumi xirurg (2012 yili malaka oshirgan), ultratovush diagnostikasi bo'yicha mutaxassis (2017 yili Mechnikov nomli Rossiya Meditsina Universitetidan olingan diplom), O'zbe-

"Operativ nefrologiya" bo'limi navbatchi feldsheri, Normal anatomiya, travmatologiya, neyroxirurgiya kafedrasini, bolalar jarrohligi kafedralarida talabalarga shu fan nazariyasini va amaliyotidan saboq berib, klinikalarda jami 20 mingdan ortiq turli murakkablikdagi jarrohlik operatsiyalari o'tkazgan.

miz ichidan eng salohiyatlari, iqtidorlilarini dunyoga tanitish tarafdriman. Bu borada Turon Fanlar akademiyasi prezidenti Haydarbek Bobebekov nufuzli akademiyalarga ularning ilmiy salohiyatini taqdim etib bormoqda. Bungungi xushxabar sohibi ham ana shunday umumjahon o'zaro hamkorlik natijasidir.

Aljon Faqirov Turon akademiyasiga 2014 yil haqiqiy a'zo qilib qabul qilingan. Bungungi kunda u Xalqaro Turon Yozuvchilar uyushmasi raisi muovini, Turon akademiyasi qoshidagi O'simliklarni tadqiq qilish ilmiy-tekshirish instituti Ilmiy kengashi a'zosi sifatida biz bilan har tomonlama sidqidildan hamkorlik qilib kelmoqda.

Men shaxsan o'zim, Toshkent tibbiyot akademiyasi xodimlari nomidan unga yangi zafarlar tilayman hamda O'zbekiston olimlari, o'zbek fozillari orasidan dunyo, Yevropa e'tirof etgan ko'plab olimlar chiqishini tilab qolaman.

**Qutbiddin NIZOMOV,
Turon Fanlar akademiyasi
akademigi, O'zbekiston
Respublikasi Sog'liqni
saqlash a'lochisi**

YANA BIR O'ZBEK OLIMI YEVROPADA E'TIROF ETILDI

kiston Respublikasi Sog'liqni saqlash a'lochisi (2018 yildan), sog'lom turmush tarzi targ'ibotchisi (oynoma, ro'znomalarda, teleradiolarda har haftadagi chiqishlar), sportchi sifatida davlatimiz meditsinasini va sog'liqni saqlash tizimi borasida targ'ibotchi va tashviqotchidir. Meditsina va xalq tabobatidan umumiy stagi 36 yilga teng.

A.Faqirov meditsinaning deyarli barcha sohalarida ishlab ko'rgan: talabalik yillarda bolalar va kattalar Tez yordam stansiyasi feldsheri,

Toshkent tibbiyot akademiyasi nafaqat respublikamiz ilm ahllarini rag'batlantirib, e'tirof etib, ilmiy, ijodiy va ixtirochlik ishlariga motivatsiya beribgina qolmasdan, balki jahonning eng nufuzli ilmiy tashkilotlari, Akademiyalari bilan hamkorlik qiladi. Dunyoning 10 dan ortiq davlatlaridan 500 ga yaqin talabalar Toshkent tibbiyot akademiyasida tahsil oladilar. Shu nufuzli Akademiya xodimi, olyi toifali shifokor, "Tibbiyotnoma" oynomasi muharriri sifatida xalqimiz orasidan, olimlari-

SOG'INDIM ONA

Mayin tabassumingiz men uchun dunyo,
Gar tomchi yosh to'ksangiz u barbod go'yo.
Sahar ila nigohingiz izlayman yana,
Kecha ko'rgan bo'lsamda sog'indim, ona.
Joningiz shu jonga jon bergen aziz,
Hatto yoningizda farishta ojiz.
So'zlariningiz qumsab takror va takror,
O'sha nurli yuzingiz sog'indim ona.
Sezaman ba'zida ko'zlar yoshlaysiz,

Bildirmayin deya asta kulasiz.
Erkalab o'zimni E'zozam deya,
Issiq bag'ringizla quchoq ochasiz.
Nasib bo'larman sizdekk shifokor,
Aytgan har so'zingiz dilimga soldim.
Yerdagi farishtam, nurli yuzligim,
Yiroqdaman, sizni juda sog'indim.

**E'zoza XASANOVA,
Toshkent tibbiyot akademiyasining davolash fakulteti
2-bosqich talabasi**



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI

(2023 yil fevral)

No	Kafedra	Lavozim, shtat birligi
1-son davolash fakulteti		
1.	1-son travmatologiya, ortopediya va harbiy dala jarrohligi	dotsent – 1,0
2-son davolash fakulteti		
1.	2-son ichki kasalliklar va endokrinologiya	assistant – 1,0
2.	Sud tibbiyoti	dotsent – 0,75
Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti		
1.	Otorinolaringologiya va stomatologiya	assistant – 1,0
2.	2-son oilaviy tibbiyotda ichki kasalliklar	assistant – 1,0
3.	Bolalar kasalliklari propedevtikasi	assistant – 1,0
Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti		
1.	Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya	assistant – 1,0
2.	Atrof-muhit gigiyenasi	assistant – 1,0
3.	Kommunal va mehnat gigiyenasi	assistant – 1,0
Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va OMX fakulteti		
1.	Ijtimoiy fanlar	dotsent – 1,0
2.	Biotibbiyot muhandisligi, biofizika va informatika	assistant – 1,0
3.	Jamoat salomatligi va menejment	assistant – 1,0
4.	Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi	katta o'qituvchi – 1,0 assistant – 1,0
5.	Allergologiya, klinik immunologiya va hamshiralik ishi	dotsent – 1,0
Malaka oshirish fakulteti		
1.	1-son fakultet va gospital xirurgiyasi	katta o'qituvchi – 1,0 assistant – 1,0
Xalqaro fakultet		
1.	Tibbiy va biologik kimyo	katta o'qituvchi – 1,0 assistant – 1,0

Hujjatlar tanlov e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida Toshkent tibbiyot akademiyasining devonxona va arxiv bo'limida qabul qilinadi.

Manzil: Olmazor tumani, Farobiy ko'chasi, 2-uy.

MUASSIS:
**TOSHKENT
TIBBIYOT
AKADEMIYASI**

MUHARRIR
**TURDIQUL
BOBOMURATOV**

TAHRIR HAYATI:
Q.Nizomov (Bosh muharrir o'rinnbosari),
O.Hazratov, A.Zohidiy, N.Hakimova,
L.Abduqodirova, M.Hasanova

Gazeta Pentium-IV
kompyuterida sahifalandi va Toshkent
Tibbiyot akademiya RISOGRAFida
400 nusxada chop etildi.
Manzilimiz:
Toshkent shahri, Farobiy
ko'chasi, 2-uy
Nashr uchun ma'sul
Q.Nizomov

Gazeta Toshkent Matbuot va axborot
boshqarmasida 2007-yil 15-yanvarda
02-0049 raqam bilan ro'yxatga olingan

Mualliflar fikri tahririyat nuqati nazaridan farqlanishi
mumkin. Maqolalardagi ma'lumotlar uchun
mualliflar javobgardir
Bepul tarqatiladi